

IQTISODIY O'SISHINI DEA USULI YORDAMIDA TAHLIL QILISH

Baqoyev Matyoqub Tashaevich

Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Komiljanov Sherzodbek Ilhomjonovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

Anatatsiya: *Mazkur maqolada mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida tashqi iqtisodiy faoliyatni oqilona tartibga solish davlat strategiyasining muhim tarkibiy qismi ekanligi va iqtisodiy o'sishni bir qancha usullari xaqida qisqacha malumotlar beilgan.*

Kalit so'zlar: *Iqtisodiy o'sish, YaIM, Ekstensiv omil, intensiv omil, taqsimlash omillari.*

Iqtisodiy o'sish deganda bevosita yalpi ichki mahsulot (YaIM) va uning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi qiymatining ortishi tushuniladi.

Agar maqsad mamlakatning iqtisodiy salohiyatini baholash bo'lsa, u holda YaIM hajmining o'sish sur'atlaridan foydalaniladi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM esa aholining turmush darajasini baholashda qo'llaniladi. Ushbu holatda YaIM hajmining o'zgarish sur'ati bilan aholi sonining o'zgarish sur'ati hisobga olinadi.

Agar YaIM hajmining o'zgarish sur'ati aholi sonining o'zgarish sur'atidan yuqori bo'lsa, aholining turmush farovonligi ortadi. Agar ushbu ko'rsatkichlar bir xil bo'lsa, aholining turmush darajasi o'zgarmaydi. Mabodo, YaIM hajmining o'zgarish sur'ati aholi sonining o'zgarish sur'atidan ortda qolsa, aholi turmush darajasining pasayishi kuzatiladi.

Bu o'rinda iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi ikki omilni keltirish kerak bo'ladi. Ular: ekstensiv va intensiv omillar hisoblanadi.

Ekstensiv omil deganda ishlab chiqarishning eski shakli saqlab qolinganda holda dehqonchilikda yer maydonini kengaytirish, sanoatda yangi quvvatlarni ishga tushirish orqali erishilgan iqtisodiy o'sish tushuniladi.

Misol uchun, bir gektar pomidor maydonidan o'rtacha 20 tonna hosil olinadi. Ekstensiv omilda pomidor ishlab chiqarish hajmini ikki marta oshirish uchun yana bir gektar yerga pomidor ekiladi va barcha agrotexnika tadbirlari xuddi oldingi bir gektar yerdagi kabi amalga oshiriladi, natijada yana 20 tonna hosil olinib, umumiy hosil 40 tonnaga yetkaziladi. Yoki non ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun mavjud korxonaga qo'shimcha ravishda xuddi shunday quvvatga ega bo'lgan yana bir korxonaga quriladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv omiliga esa mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish vositalarini sifat jihatidan takomillashtirish, ya'ni ilg'or

texnologiyalarni qo'llash, ishchilar malakasini oshirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish orqali erishiladi. Mazkur omil ishlab chiqarishning ichki resurslaridan unumli foydalangan holda, ortiqcha kuch, mablag' sarflamasdan mahsulot miqdorining o'sishi va sifatining oshishida o'z ifodasini topadi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh **taklif omillari**, deb ham atalib, iqtisodiyotning o'sish layoqatini belgilab beradi:

- 1) tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
- 2) ishchi kuchi resurslari miqdori va sifati;
- 3) asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi;
- 4) texnologiya va fan-texnika taraqqiyoti.

Bu omillar har birining yalpi mahsulot hajmiga ta'sirini baholash orqali iqtisodiy o'sishni tavsiflash mumkin.

Ma'lumki, yalpi milliy (ichki) mahsulot ishchi kuchi, kapital va tabiiy resurslar sarflarining funktsiyasi hisoblanadi, ya'ni:

$$V = F(L, K, N,)$$

bu yerda:

V - yalpi milliy (ichki) mahsulot;

L - ishchi kuchi sarflari;

K - kapital sarflari;

N - tabiiy resurslar sarflari.

Bu funktsional bog'lanishdan kelib chiqqan holda iqtisodiy o'sishni belgilab beruvchi bir qator xususiy ko'rsatkichlarni keltirib chiqarish mumkin:

1) mehnat unumdorligi (V/L) — mahsulot ishlab chiqarish hajmining jonli mehnat sarflariga nisbati;

2) mehnat sig'imi (L/V) - jonli mehnat sarflarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

3) kapital samaradorligi (Q/K) - mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan kapital xarajatlariga nisbati;

4) kapital sig'imi (K/Q) - kapital xarajatlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

5) tabiiy resurslar samaradorligi (Q/V) - mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan tabiiy resurslar xarajatlariga nisbati;

6) mahsulotning resurslar sig'imi (V/Q) – tabiiy resurslar sarfining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

7) ishchi kuchining kapital bilan qurollanganlik darajasi (K/N_u) - ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilayotgan kapital hajmining ishchi kuchi miqdoriga nisbati.